



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 31.01.2022 г. № 31

между ООО LAZIZ PHARM и Самарканд вилоят рухий касалликлар шифохонаси на общую сумму 19607000,00

Глава 054  
Казначейский лицевой счёт 100021860182367073201054001

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4252411			
Январь	19 607 000,00			19 607 000,00
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>19 607 000,00</b>			<b>19 607 000,00</b>

Всего 19607000,00 сум

Девятнадцать миллионов шестьсот семь тысяч сум 00 тинган

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 5882100,00 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в \_\_\_\_\_ мес. 20\_\_ г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца.

(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

(подпись)

Ахроров А.А.

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Тангматов Гайрат Исмаилович

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

Получил работник заказчика

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

Samarkand shaxri

«31» «Yanvar» 2022 yil

MChJ "LAZIZ PHARM" keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi, asosida ish yurituvchi direktor Xaydarov S.Sh., nomidan bir tomondan va Viloyat Ruxiy Kasalliklar shifohonasi, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi, O'zining nizomi, asosida ish yurituvchi (raxbar, bosh vrach) Ahrorov A.A. , nomidan ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

**1. SHARTNOMANING PREDMETI**

1.1. Sotuvchi o'ziga tegishli bo'lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga o'z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni kabul kilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

№	Tovar (maxsulotlar) nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Baxosi	QQS stavkasi	QQS stavkasi bilan summa
1	Steril qo'lqoplar	para	1 500	3 450,00	5 175 000,00	QQS siz	5 175 000,00
2	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan infuzion sistemasi	sht	2 500	2 950,00	7 375 000,00	QQS siz	7 375 000,00
3	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 10 ml	sht	3 000	700,00	2 100 000,00	QQS siz	2 100 000,00
4	Doka marlya 10 m	up	200	19 000,00	3 800 000,00	QQS siz	3 800 000,00
5	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 5 ml	sht	1 780	650,00	1 157 000,00	QQS siz	1 157 000,00
<b>Jami:</b>			<b>8 980</b>		<b>19 607 000,00</b>		<b>19 607 000,00</b>

1.2 Shartnomaning umumiy summasi **19 607 000** (O'n to'qqiz million olti yuz etti ming) sum ni tashqil qiladi.

**2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI**

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik organiida ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30 % miqdorida (shartnoma summasidan 50 % miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % ni tovarni olgandan so'ng 30 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Yetkazib beruvchi" avans mablag'lari Yetkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab     bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Yetkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan tovarlarga muvofiqqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

**3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

3.1. Buyurtmachining huquqlari: Yetkazib beruvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish; Buyurtmachi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Yetkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlaridja boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Yetkazib beruvchidan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg'araz bartarf etish;

- Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Yetkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega:

- "Buyurtmachidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

- Buyurtmachidan shartnomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

#### 3.4. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va me'yorlardan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'l qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha \_\_\_ - kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnoma shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

### 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Tovarlar tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrd) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga talab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi

#### 4.3. Yetkazib beruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi shartnoma shartlarining buyurtmachi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalariga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

### 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iktisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iktisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iktisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

### 6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmay kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

## 7. BOSHAQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin.

Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

SOTUVCHI	SOTIB OLUVCHI
Tashkilot nomi : MChJ "LAZIZ PHARM" Manzil: Samarkand shahri, Turkiston ko'chasi 169 uy Telefon: 97-926-36-63 STIR kodi: 305891202 OKED: 46460 X/R 20208000800965951001 Bank nomi: "SANOATKURILISHBANK" Samarqand filiali MFO: 00517 Raxbar (direktor): <u>Xaydarov S.Sh.</u> M.O. (imzo)	Tashkilot nomi: Viloyat Ruxiy Kasalliklar shifoxonasi Manzil: Samarqand viloyati Urgut tumani Xalqobod qishlog'i STIR kodi: 201213890 OKED: 91513 x/r: <u>10001260122567073201054001</u> G'aznachilik bo'linmasi nomi: Yagona G'aznachilik xisob varakalari (YaGX) G'/h: 23402000300100001010 Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh.bosh boshkarmasi XKKM MFO : 00014 G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919 Raxbar (direktor): <u>Abbarov A.A.</u> M.O. (imzo) Xukukshunos: <u>GU</u>

Ushbu shartnoma loyixasi Uz.R. «Xujalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi konunning 10,24-34 moddalarini va Uz.R. «Fukarolk kodeksi»ning 386-424 moddalarini talablariga javob beradi.

Xukukshunos: \_\_\_\_\_

**"ТАСДИКЛАЙМАН"**

Вилоят рухий касалликлар шифохонаси  
бош врачлари \_\_\_\_\_ А.А.Ахроров

М.Н.

(имзо)

" 31 " 01 2022 йил

Самарканд вилоят рухий касалликлар шифохонасига дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий ускуналар харид қилиш бўйича доимий ишловчи танлов (тендер) Комиссия йиғилиши

**БАЁНИ**

31.01.2022 йил

Ургут тумани

**КОМИССИЯ РАИСИ**

Даволаш ишлари бўйича бош врач Уринбосари

Ў.Р.Ибрагимов

**КОМИССИЯ АЪЗОЛАРИ**

Дорихона мудирлари

10-булим бошлиғи

3-булим бошлиғи

8-булим бошлиғи

20-булим бошлиғи

Дори-дармон ҳисобчиси

Ғ.Н.Донияров

М.М.Мирзаев

Д.Н.Бобоқулова

М.К.Эргашев

Б.К.Раззаков

Ф.Н.Халмуминов

**КУН ТАРТИБИ:**

Шифохонага дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозлар харид қилиш бўйича «SAM PRO MED» ООО, «SITORA FARM PLYUS» ООО ва «LAZIZ PHARM» ООО лар томонидан танлов (тендер) Комиссиясига тақдим этилган тижорат тақлифлари бўйича энг яхши харид тақлифини аниқлаш.

Сўзга чиққанлар: Ў.Р.Ибрагимов Ғ.Донияров

Йиғилишда қайд этилдики, шифохонанинг дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозлар харид қилиш бўйича комиссиясининг дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозлар харид қилиш бўйича бир қатор корхоналардан тижорат тақлифлари олинган.

- Самарканд вилояти Самарканд шаҳри Набиева кўчаси 4-уйда жойлашган «SAM PRO MED» ООО томонидан 2022 йил 27 январдаги №10-сонли хат билан;

- Самарканд вилояти Самарканд шаҳри А.Қодирий кўчаси 11-уйда жойлашган «SITORA FARM PLYUS» ООО томонидан 2022 йил 27 январдаги №07-сонли хат билан;

- Самарканд вилояти Самарканд шаҳри Туркистон кўчаси 169-уйда жойлашган «LAZIZ PHARM» ООО томонидан 2022 йил 27 январдаги №05-сонли хат билан;

Мазкур корхоналар томонидан тақдим этилган тижорат тақлифларига мувофиқ дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозлар харид қилиш бўйича танловда иштирок этиш учун қўйдаги тур, ўлчам ва нархлар тақлиф этилган:

Т/р	Тури	Ўлчов бирлиги	Ўтказиб берувчиларнинг тақлиф нархлари		
			«LAZIZ PHARM» ООО	«SITORA FARM PLYUS» ООО	«SAM PRO MED» ООО
1	Стерил кулпоплар	пара	3 450,00	3 590,00	3 520,00
2	Дока марля 10 м*х90см	шт	19 000,00	19 800,00	19 400,00
3	Бир маротаб қулланиладиган стерилланган инфузион системаси	шт	2 950,00	3 070,00	3 000,00
4	Бир маротаб қулланиладиган стерилланган инъекцион шприцлар 10	шт	700,00	730,00	715,00
5	Бир маротаб қулланиладиган стерилланган инъекцион шприцлар 5 м	шт	650,00	675,00	665,00

Корхоналар томонидан тақлиф этилаётган дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозларни сифатли ҳамда шартномада келишилган муддатларда тайёрлаш, ўтказиб бериш ва зарур бўлганда уларни бюджет ташкилотлари томонидан олингунга қадар оморларда тўлиқ сақлаб туриш қароридан бериш.

Бундан ташқари, дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозлар харид қилиш «LAZIZ PHARM» ООО дан олинган тижорат тақлифи нархлари арзонлиги эътиборга олиш лозимлиги айтиб ўтилди.

Йиғилишда таъкидлаб ўтилганларни ҳисобга олиб ҳамда корхоналар томонидан тақдим этилган харид нархлар, сифати ва шартномада келишилган муддатларда тайёрлаш, оморларда сифатли сақлаб туриш ҳар томонлама таҳлилдан ўтказиб, Комиссия

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Шифохонага дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозларни:

- тақдим этилган нархлари арзонлиги;

- сифати ва шартномада келишилган муддатларда ва махсулотларни олингунга қадар оморларда тўлиқ сақлаб туриш кафолати;  
- корхона шифохонага яқин жойда жойлашганлиги, бу эса озик-овқат махсулотини етказишда транспорт харажатларини иктисод қилиш имконияти тавжудлиги туфайли «LAZIZ PHARM» ООО дан харид қилинсин.

2. «LAZIZ PHARM» ООО дан дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозларини харид қилиш буйича шифохона ўртасида хўжалик шартномалари лойиҳалари икки нусхада Ўзбекистон Республикасининг “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ тузиш белгилансин.

3. «LAZIZ PHARM» ООО дан дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозларини харид қилиш буйича шифохона ўртасида дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозларини харид қилиш буйича тузиладиган хўжалик шартномалари лойиҳалари икки томонлама, яъни «LAZIZ PHARM» ООО томонидан жалб этиладиган адвокатлар ёки юристлар ҳамда шифохона юристи экспертизасидан ўтказиш белгилансин.

4. «LAZIZ PHARM» ООО дан дори-дармон ва боғлов воситалари, тиббий жихозларини харид қилиш буйича шифохона ўртасида икки томонлама тасдиқланган ва жалб этиладиган адвокатлар ёки юристлар экспертизасидан ўтказилган хўжалик шартномалари белгиланган тартибда тузилиб, икки томон раҳбарлари томонидан тасдиқлангандан сўнг 2 (икки) асли ва 1 (бир) нусхаси вилоят Ҳазначилик бошқармаси юридик мажбуриятларни рўйхатга олиш ва нарх мониторинги гуруҳига бош ҳисобчи Ғ.И.Тангматов томонидан тақдим этилсин ва ижроси назоратга олинсин.

Самарқанд вилоят Ҳазначилик бошқармасига шартномалар билан биргаликда, қуйидагилар тақдим этилсин:

- белгиланган тартибда расмийлаштирилган суровнома;
- белгиланган тартибда расмийлаштирилган тўлов жадвали;
- мазкур комиссия йиғилиши баённома асли (қайтарилди) ва нусхаси;
- танлов ёки тендер қолибининг давлат рўйхатидан ўтганлиги тўғрисидаги гувоҳнома;
- товарлар миқдори, ҳажми, тури, нархи ва сўммаси қайд этилган товарлар рўйхати;
- танлов ёки тендерда иштирок этган хўжалик юритувчи субъектларнинг белгиланган тартибда ва шаклда тақдим этган харид тақлифлари тақдим этилсин.

#### КОМИССИЯ РАИСИ

Даволаш ишлари буйича бош врач Уринбосари

Ў.Р.Ибрагимов

#### КОМИССИЯ АЪЗОЛАРИ

Дорихона мудир

10-бўлим бошлиғи

3-бўлим бошлиғи

8-бўлим бошлиғи

20-бўлим бошлиғи

Дори-дармон ҳисобчиси

Ғ.Н.Донияров

М.М.Мирзаев

Д.Н.Бобоқулова

М.К.Эргашев

Б.К.Раззаков

Ф.Н.Халмуминов



Uzbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Turkiston kuchasi 169 uy. r/s: 20208000800965951001, MFO:00317 Bank: ATB «Uzsanoatkurilishbank» Samarqand filiali, INN:305891202, OKED:46460

№ 05

«31» 01 2022y.

### TIJORAT TAKLIFI

MChJ «LAZIZ PHARM», Виконт рўқати касалликлар ни ёротида ga dori vositalari, tibbiy buyumlar va kimyoviy reaktivlarga ehtiyojni ta'minlash maqsadida, tanlov komissiyasiga o'z taklifimizni ma'lum qilamiz:


№	Tovar (maxsulotlar) nomi	O'lchov birligi	Narxi
1	Steril qo'lqoplar	para	3 450,00
2	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan infuzion sistemasi	sht	2 950,00
3	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 10 ml	sht	700,00
4	Doka marlya 10 m	up	19 000,00
5	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 5 ml	sht	650,00

direktor

MChJ «LAZIZ PHARM»



Xaydarov S.Sh.



## MCHJ "SITORA FARM PLUS"

### XARID UCHUN TIJORAT TAKLIFI

MChJ "SITORA FARM PLUS", viloyat markazidagi tibbiyot markazi ga dori vositalari, tibbiy buyumlar va kimyoviy reaktivlarga ehtiyojni ta'minlash maqsadida, tanlov komissiyasiga o'z taklifimizni ma'lum qilamiz:

№	Tovar (maxsulotlar) nomi	O'lchov birligi	Narxi
1	Steril qo'lqoplar	para	3 590,00
2	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan infuzion sistemasi	sht	3 070,00
3	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 10 ml	sht	730,00
4	Doka marlya 10 m	up	19 800,00
5	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 5 ml	sht	675,00

Taklif etilayotgan dori-darmon va tibbiyot asbob-uskunaparini sifatli hamda shartnomada kelishilgan muddatlarda tayyorlash, etkazib berish va zarur bulganda ularni byudjet tashkiloti tomonidan olingunga qadar omborlarda tulik saqlab turish kafolatlanadi

MChJ "SITORA FARM PLUS"  
direktori




L. Shamsiqulov

Власть рудини қосимликлар шифохонаси

Bosh vrach: A. A. Zorova ga

"SAM PRO MED" MChJ tomonidan



## XARID UCHUN TIJORAT TAKLIFI

MChJ "SAM PRO MED", dori vositalari, tibbij buyumlar va kimyoviy reaktivlarga ehtiyojni ta'minlash maqsadida, tanlov komissiyasiga o'z taklifimizni ma'lum qilamiz:

No	Tovar (maxsulotlar) nomi	O'lchov birligi	Narxi
1	Steril qo'lqoplar	para	3 520,00
2	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan infuzion sistemasi	sht	3 000,00
3	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 10 ml	sht	715,00
4	Doka marlya 10 m	up	19 400,00
5	Bir marotaba qo'llaniladigan sterillangan inekcion shpriclar 5 ml	sht	665,00

Taklif etilayotgan dori-darmon va tibbiyot asbob-uskunaparini sifatli hamda shartnomada kelishilgan muddatlarda tayyorlash, etkazib berish va zarur bulganda ularni byudjet tashkiloti tomonidan olingunga qadar omborlarda tulik saqlab turish kafolatlanadi

MChJ "SAM PRO MED"  
direktori



Xolmuradov S